

BOLALARNI ZORAVONLIKDAN HIMOYA QILISHNING BARCHA SHAKLLARI

Jabborova Shodiya Oybekovna

*Samarqand Davlat Universiteti Psixologiya va ijtimoiy-siyosiy fanlar fakulteti
Ijtimoiy ish yo'nalishi 4-bosqich talabasi*

Xudoyberdiyeva Dilnoza San'atovna

*Samarqand Davlat Universiteti Psixologiya va ijtimoiy-siyosiy fanlar fakulteti
Ijtimoiy ish yo'nalishi 4-bosqich talabasi*

Qurbondurdiyeva Zamira Maqsudbekovna

*Samarqand Davlat Universiteti Psixologiya va ijtimoiy-siyosiy fanlar fakulteti
Ijtimoiy ish yo'nalishi 4-bosqich talabasi*

Rizvonkulov Aminjon Xamidjanovich

*Samarqand Davlat Universiteti Psixologiya va ijtimoiy-siyosiy fanlar fakulteti
Ijtimoiy ish yo'nalishi 4-bosqich talabasi*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada bola huquqlari, ularni himoya qilinishining yuridik asoslari, ushbu sohada amalga oshirilayotgan ishlar hamda uning mazmun – mohiyati yoritib berilgan.*

Kalit so'zlar: *bola, bola huquqlari, yosh avlod, insonparvarlik tamoyillari, huquq va erkinliklar, «Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida»gi qonun, huquqiy madaniyat*

Yosh avlodni erkin, demokratik, insonparvarlik tamoyillari asosida komil inson ruhida o'stirish, ularning nafaqat o'z huquq va erkinliklarini yaxshi biluvchi, balki ularni amalga oshira oladigan hamda o'z burch va majburiyatlarini ham ongli ravishda bajaruvchi inson sifatida jamiyatning teng huquqli va faol subyektini qilib tarbiyalash fuqarolik jamiyatiga asoslangan demokratik, huquqiy davlatni qurishni o'z oldiga maqsad qilib olgan har bir demokratik davlatlar kabi O'zbekiston uchun ham muhim va dolzarb masala hisoblanadi.

«Azal-azaldan har qaysi ota-ona o'z bolasining sog'lom va barkamol, aql-zakovatli, baxtli bo'lishini istaydi. Shunday farzandni voyaga yetkazish, uning hayotda munosib o'rin egallashiga erishish – ota-onaning eng ulug', eng muqaddas orzusi, desak, ayni haqiqatni aytgan bo'lamiz. Ayni vaqtda bugungi shiddatli zamon, hayotning o'zi yosh avlod tarbiyasi borasida oldimizga yangi- yangi, o'ta muhim va dolzarb vazifalarni qo'yimoqda».

O'zbekiston Respublikasining milliy qonunchiligida «Bola (bolalar)» tushunchasiga O'zbekiston Respublikasining «Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida»gi Qonunida ilk marotaba ta'rif berilgan. Mazkur Qonun qabul qilinishiga qadar, «bola» yoki «bolalar» tushunchasi qo'llanilganda, uning mazmuni yoritilmagan. Bolaga berilgan ushbu ta'rif muhim, chunki «Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida»gi Qonun va bolalarga oid boshqa qonunlar kimlarni himoya qilishga qaratilganligini aniq belgilab beradi.

O'zbekiston Respublikasining yoshlarga oid davlat siyosati sohasidagi vakolatlari, yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risidagi qonunlarning mazmun-mohiyati qanday bo'lishi lozimligi, bu boradagi O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari normalarining ustuvorligi tamoyili ko'rsatib o'tilgan. Bu esa, yoshlar siyosati masalasi 1992-yilgi mustaqil O'zbekistonning Konstitutsiyasida o'z aksini topishiga, shu yili O'zbekistonning BMTning asosiy hujjatlaridan biri hisoblanmish «Bola huquqlari to'g'risida»gi konvensiyaga qo'shilishiga va mazkur hujjatlar asosida o'tgan davr mobaynida bolalar va yoshlar masalalariga daxldor 100 dan ortiq qonunlarni qabul qilinishi hamda 2008-yilda, bu sohadagi maxsus qonun hisoblangan O'zbekiston Respublikasining «Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida»gi Qonunini qabul qilinishiga asos bo'ldi.

Mazkur huquqiy hujjatlarda bolalar, shuningdek, aholining boshqa barcha qatlami vakillarining ham bola huquqlari sohasidagi huquqiy madaniyatini shakllantirish va rivojlantirishga katta e'tibor qaratilgan. Bu yo'nalishda huquqiy tarbiya muhim ahamiyat kasb etadi. Bu boradagi tegishli xalqaro hujjatlar, parlamentning qonun va qarorlari, mamlakat Prezidentining g'oyalari, tegishli farmon va farmoyishlari ijrosining samarasi o'laroq, bugungi kunda mamlakatimizda maktabgacha va umumiy o'rta ta'lim muassasalari, oliy o'quv yurtlari va oliy o'quv yurtidan keyingi ta'limda huquqiy ta'lim tizimi yaratildi. Bola huquqlarini o'rganish masalasi mazkur tizimning tarkibiy qismiga aylandi.

Bolalar ota-onalaridan sir yashirganlari uchun ko'pchilik kattalar bu muammodan bexabarlar. Ko'pincha bolalar ta'qib qilish jinoyatga aylanganda ham, buni ota-onalariga aytmaydilar. Aksariyat ota-onalar bu bezorilik jiddiy oqibatlariga olib kelmaydi, deb hisoblashadi va bu xato qarash bola hayotida qimmatga tushishi mumkin.

Bugungi kunda deyarli hamma bolaning qo'lida uyali aloqa telefoni bor. Gadjetlar bolalarni ta'qib qilishning yangi imkoniyatlarni yaratdi. Bezori va jinoyatchilar bolalarni to'la nazorat qilish uchun ulardan foydalanadilar. Bolalar bu matoh shunchaki nazorat vositasi bo'lishi mumkin deb o'ylamaydilar hatto. Masalan, g'araj niyatli kishilar o'smirni o'g'irlik yoki og'irror jinoyatlar sodir etishga undashlari mumkin. Kattalar uchun bu g'alati tuyulishi mumkin, biroq ko'proq qo'rqitish yoqi haqorat qilish haqiqatan ham bolani jinoyatga qo'l urishiga majbur qilishi ehtimoldan holi emas. Eng yaxshi holatda, u tovlamachilarga berish uchun ota-onasining pulini o'g'irlyadi. Ota-onalar buni sezib qolishganda, pullar ularga nega kerak bo'lganini aytishmaydi. Bolalar ota-onalaridan ko'ra, tovlamachilardan ko'proq qo'raqdilar. Ba'zida bu dalil bo'la oladi, ta'magirlar haqiqatan ham jabrlangan bolaning ota-onasiga nisbatan ham qo'rqinchli hatti harakatlarni amalga oshira oladilar.

Masalan, Rossiyada tovlamachilar bolasining bu muammosidan xabar topgan ota-onani o'ldirgan ko'plab holatlar qayd etilgan. Shu bois, ota-onalar bunday holatlarda o'quv muassasasiga murojaat qilmasliklari, masalaga mustaqil ravishda oydinlik kiritishga urinmasliklari kerak. Eng yaxshi chora – huquqni muhofaza qilish

organlariga murojaat qilish. Shuningdek, voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etiladigan jinoyatlar bo'yicha mahalliy qonunchilik terminologiyasi va o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish maqsadga muvofiq.

Agarda bolani ta'qib qilish ijtimoiy tarmoqda sodir etilayotgan bo'lsa, bu keng doiradagi odamlar, jumladan begonalarning e'tiborini jalb qilishi mumkin. Bunday noxush holatlar qayerda sodir etilmasin, unga nisbatan bee'tibor bo'lmaslik kerak.

Kiberbullingga qarshi kurash nafaqat ta'qibchilarni to'xtatish uchun, balki insonlarga har kim ijtimoiy tarmoqda ham, hayotda ham o'ziga nisbatan hurmat bilan munosabatda bo'lishga loyiqqligini eslatish uchun kerak.

Kimdir internet tarmog'ida ta'qib qilinsa, u o'zini hamma joyda, hatto o'z uyida ham kuzatayotgandek tuyuladi. U tovlamachilardan hech qayoqqa qutulib bo'lmaydi, degan hayolga boradi. Bunday hatti-harakatlar uzoq muddatli ruhiy, hissiy va jismoniy oqibatlarga olib kelishi mumkin.

Birovning masxara qilishi yoki ta'qib qilishidan qo'rqish jabrlanganlarga muammoni aytib berish yoki uni hal qilishga urinishga to'sqinlik qiladi. Boshqa iloj topilmay qolgan taqdirda, internet-ta'qib insonni suiqasdgacha olib borishi mumkin.

Biz bolalarni himoya qilishning sifatli tizimini ta'minlash uchun har bir inson mas'uliyatli bo'lishi kerak deb hisoblaymiz. Bolalarga g'amxo'rlik va ularning farovonligi birlamchi hisoblanib, barcha bolalar har qanday zarar va xaqorat qilinishdan himoyalani huquqiga egadir. Britaniya Kengashi o'z loyihalarida hamkorlik qilayotgan bolalarni har qanday yomon munosabatdan himoya qilishni muhim deb biladi. Bunga bolalarga zarar yoki xavf tug'diradigan qiyidagilardan himoya qilish majburiyati kiradi:

- xodimlarimiz yoki hamkorlarimiz tomonidan noto'g'ri xatti-harakat
- yomon na'muna bo'ladigan harakatlar
- loyiha va dasturlarimizga yaxshi tayyorlik ko'rmaslik

Biz bunga Buyuk Britaniyaning bolalarni himoya qilish to'g'risidagi qonuni va biz faoliyat yuritayotgan mamlakatga tegishli qonunlarga ko'ra hamda Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bola huquqlari to'g'risidagi konventsiyasining (UNCRC) 1989 yildagi 19-moddasiga amal qilgan holda erishamiz.

Britaniya Kengashida 18 yoshga to'lmagan har bir kishi, yashaydigan mamlakatidagi yoki vatanidagi yetuklik yoshidan qat'iy nazar, voyaga yetmagan bola deb hisoblanadi (UNCRC 1989).

Qayd etilishicha, bugungi kunda turli davlatlarda olib borilgan 80 ga yaqin tadqiqotlarga ko'ra maktab o'quvchilarining 35 foizi doimiy ravishda tazyiq va zo'rvonlikka uchraydi. Tazyiq va zo'rvonlikka qarshi kurashish bo'yicha maxsus dasturlarga ega bo'lgan AQSH, Buyuk Britaniya, Skandinaviya davlatlarida bunday dasturlari bo'lmagan davlatlarga qaraganda tazyiq va zo'rvonlik ko'rsatkichi 20 foiz kamroqni tashkil qiladi.

"Bolalarni zo'rvonlikning barcha shakllaridan himoya qilish to'g'risida"gi qonun loyihasi jamoatchilik muhkamasi uchun portalga joylandi. Hujjat Prezident huzuridagi

Ijtimoiy himoya milliy agentligi, Adliya vazirligi hamda UNICEF hamkorligida ishlab chiqilgan. “Gazeta.uz” hujjat sharhini taqdim etadi.

Taklif etilayotgan qonun loyihasi 5 ta bob, 49 moddadan iborat. Uni ishlab chiqishda Germaniya, Fransiya, Daniya, Singapur, BAA , Vengriya, Bolgariya, Albaniya, Filippin, Gruziya davlatlari tajribasi o‘rganildi.

Bolalarni zo‘ravonlikdan himoya qilish faoliyatini bevosita amalga oshiruvchi davlat organlari va tashkilotlar Bolalar masalalari bo‘yicha milliy komissiya tomonidan muvofiqlashtiriladi. Ijtimoiy himoya milliy agentligi komissiyaning ishchi organidir. Qolaversa, agentlik qonun ijrosini ta‘minlash bo‘yicha vakolatli organi ham hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1.Madumarov Talatbek Tolibjonovich, & Gulomjonov Odiljon Rahimjon o‘g‘li. (2021). PREREQUISITES FOR THE DEVELOPMENT OF A LEASING MECHANISM IN PUBLIC - PRIVATE PARTNERSHIP. International Engineering Journal For Research & Development, 6(SP),

<https://doi.org/10.17605/OSF.IO/7MXR3>

1. S.A.Ismailov. (2022). TA‘LIM JARAYONLARIDA “MA’NAVIYATNING ILMIY METODOLOGIYASI” FANI TUZILISHI, ASOSIY MAVZU VA MUAMMOLARI. FAN PREDMETINI O‘RGANISHNING ILMIY-USLUBIY ASOSLARI.

3.Yosh Tadqiqotchi <https://2ndsun.uz/index.php/yt/article/view/224> 3.

Namangan State University, 2(6), 469-475.

4.Tolibjonovich, M. T. (2021). EASTERN RENAISSANCE AND ITS CULTURAL HERITAGE: THE VIEW OF FOREIGN RESEARCHERS. ResearchJet Journal of Analysis and Inventions, 2(05), 211-215.